

MUSIQANING SHAXS KAMOLOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Alimova Diyora Alimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

“Musiqiy ta’lim” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

dalimova708@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur maqolada musiqa san'atining inson kamolotida tutgan o'rni, o'tmishda va hozirgi kunda xalqimizning ma'naviy saviyasini oshirishdagi ahamiyati hamda yangi O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida musiqa san'ati yetakchi omillardan biri ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'z: Maqom, nota, tur, janr bazm, muallif, kompozitor, madaniyat, hayot, musiqa, sozanda va bastakor, miniatyura

Abstract:

This article talks about the role of music in human development, the importance of the spiritual level of our people in the past and now, and one of the developments of music in the social development of the new Uzbekistan.

Keywords: Status, note, type, genre, author, composer, culture, life, music, musician and composer, miniature

San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf- odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi. Va men ishonaman , ular dunyoni ma'naviy tanazzulda qutqarishda qodir bo'lgan, o'zaro ahillik va birdamlikni ulug'lovchi avlod bo'lib maydonga chiqadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda yuzlab musiqa va san'at maktablari, akademik litseylar, oiliy o'quv yurtlari, ko'plab teatrlar, tasviriy san'at va konsert zallari faoliyat olib bormoqda. O'ylaymanki, sizlar ana shu ijod maskanlariga tashrif buyurib , yoshlarimiz uchun mahorat darslari bo'lib xizmat qiladigan uchrashuv va suhbatlar o'tkazamiz.¹

¹ Shavkat Mirziyoyev “ Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari” Toshkent 2020 310-bet



Yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimi asosida shaxsni rivojlantirishda juda katta e'tibor berilib kelmoqda . Bu o'rinda shubhasiz musiqa darslarida e'tibor tubdan takomillashtirilib, uni yanada rivojlantirish masalasiga e'tibor o'zgacha tus oldi. Kelajak avlodni barkamol inson etib tarbiyalashga alohida urg'u berishi juda ham ahamiyatli va quvonarli holdir. Shaxs shakillanishida ayniqsa o'zbek xalq musiqa tarixi fanining o'rne bir qadar ahamiyatli ekanligin ta'kidlab o'tmoqchiman. Bugungi globallashuv jarayonida musiqiy ta'lim-tarbiya jarayoni, sifat va samaradorligini oshirish maqsadida mavjud muammolarni aniqlash, jumladan, bugungi kun musiqa o'qituvchilarining dars mashg'ulotini interfaol texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilayotganligi mazkur amaliy-ijodiy jabha bilan birga, uning nazariy-ilmiy asoslarini ishlab chiqish bugungi kun va kelajagimizning dolzarb ehtiyojlaridan biridir.

Musiqa-millat ruhining tili, musiqa millat his-tuyg'ularining tarjimonidir. Shuning uchun faqat estetik tarbiyada emas, ahloqiy ma'naviy , ruhiy hattoki diniy, badiiy tarbiyada musiqaning hizmatlari beqiyosdir deb aytadi filologiya fanlari doktiri , adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o'zining adabiy suhbatlaridan birida va shu o'rinda Ibn Xaldunning ushbu fikrini eslatib o'tadi: "musiqa bir san'at sifatida faqat ijtimoiy va madaniy jihatdan yuksalgan muhitlarda rivoj topgan. Iqtisodiy farovonlikka erishgan jamiyatdagina musiqaga kuchli ehtiyoj seziladi.

Qadimiy san'at turlaridan biri bu musiqa san'atidir. Musiqa (qadimgi yunoncha "muzalar san'ati" – inson xissiy kechinlamalari , fikrlari, tasavvur doirasining musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasiga aks ettiruvchi san'at turi. Uning mazmuni o'rganuvchan ruhiy xolatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy-badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari musiqa shaxsning irodaviy sifatlarini uning tabiatini ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning odam ongi va xissiyotini ta'sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo'lgan prosessual- muayyan jarayonli tabiat bilan bog'liqdir. Musiqa asarlari mazmunida musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari jarayonida shakillanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra musiqa mazmuni ham turli –epik ,dramatik , lirik belgilarga ega bo'lishi mumkun. Insonning musiqa faoliyati asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi: ijod ya'ni ijod etish (musiqa yozish), ijro (cholg'uda musiqa ijro etish tinglash(musiqani tinglash va xulosa chiqarish). O'zbekistonda musiqa asosan xalq va og'zaki an'anadagi professional musiqa



sifatida qadimdan rivojlanib kelgan. Xalq musiqasida lapar, terma, yalla, qo'shiq laparlar turli xillari (marosim, maishiy, mehnat, o'yin, raqs) og'zaki an'anadagi o'zbek professional musiqada esa doston, katta ashulla, ashulla, maqom, cholg'u yo'llari kabi janrlari mavjud. Musiqa inson hayoti davomida unga doim hamrohdir. Musiqa sadolari ostida qilingan mehnat unumli, musiqa bilan olingan dam maroqli bo'ladi. Kishilarning bayramlari, to'y-marosimlar ham, fojiali motam marosimlar ham musiqa bilan o'tadi. Musiqa san'ati qalbga sokinlik, orom, ruhiyatga poklik, mo'tadillik bag'ishlaydi. Uning mo'jizakorligi bu qadimiy merosimizni o'zbek tilini mutlaqo tushunmaydigan xorijliklilar ham sehrlanib, sel bo'lib tinglashida yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbek musiqa me'rosida 4 asosiy mahalliy uslubni farqlash mumkin (Buxoro-Samarqand musiqa uslubi, Xorazm musiqa uslubi, Farg'ona-Toshkent musiqa uslubi, Surxandaryo – Qashqadaryo musiqa uslubi).

XX asrda o'zbek va boshqa O'rta osiyo xalqlari musiqa merosini yozib olish va o'rganish bo'yicha muhim ishlar bajarildi, yuzlab nota to'plamlari va ilmiy tadqiqotlar nashr etildi. Hozirda O'zbekistonda musiqa faoliyati asosan ijrochi jamoalar (turli orkestr, xor va ansambllar) mustaqil ijro sifatida ayrim xonanda sozandalar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Musiqaning mazmuni –shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bundan ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davraga xos ruhiy tarovot, sun'iy, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o'ziga xos o'ringa egadir. U dam olish va ko'ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashqlari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun musiqa asarlari o'z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub tur va janr guruhlariga ajratadi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va b. sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Ashulla, dastgoh, cholg'u, kuy, maqom yo'llar, konsert, miniartyura, romans va boshqalarda estetik tasir o'tkazish vazifalari asosiy o'rin tutadi. Janrlar, o'z navbatida, diniy musiqa yoshlar musiqasi, maishiy musiqa ommaviy musiqa, xarbiy musiqa, kamer musiqa, simfonik musiqa, xor musiqasi kabi musiqa turlariga birlashadi. Tarixiy, milliy, mahalliy, shahsiy, (individual) musiqa uslublari ham musiqiy tafakkur tarzi, ohang, ritm, shakl kabi musiqiy





unsurlarini o'ziga qamrab olib, muayyan bir davr yoki milliy madaniyatga mansub bo'lgan turli janrdagi asarlar umumiyatini aks etiradi. Musiqa ijochiligi musiqa cholg'ulari hamda oson ovozi vositasida amalga oshiriladi. Bular yakka tarzda, ansambl, xor, orkestr kabi birikma shakllarda namoyon bo'ladi. Musiqa ijodiyoti, ijrochili va tinglanishi musiqa faoliyatining boshqa turlari : musiqa tarbiyasi, musiqa ta'limi, musiqiy tanqid va boshqalar bilan birga jamiyat musiqa madaniyat tizimini tashkil etadi. Musiqa inson tafakkurining alohida mahsuli bo'lib, uning mazmun va mohiyati asar bilan bevosita muloqotda , ya'ni uning jaranglovchi ohangini o'zlashtirish jarayonidagina namoyon bo'ladi Ijodiy kasbiy tayyorgarligi o'quvchi shaxsiga hamda musiqiy – ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga bog'liqligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Ammo insonga kuchli hissiy tasir o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan musiqiy ta'limning tarbiyaviy potentsialini yuzaga chiqarishda faqatgina an'anaviy metodlar va umumdiqqatlik tamoyinlarga tayanib ish olib borish zamon talabiga javob bermay qo'ydi.

Zamonaviy pedagogikada taniqli rus olimi G.K.Selevko "pedagogik texnologiya"ni fan sifatida e'tirof etadi va shunday deydi; pedagog texnologiya o'qitishning bir muncha oqilona yo'llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham talimda qo'llanadigan usullar, prinsiplar va regulativlar sifatida ham real o'qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir. Musiqa ta'limida pedagogik texnologiyaning qo'llanish va undan ko'zda tutilgan natijaga erishish faqat pedagogik faoliyat jarayonida samarali amalga oshadi. O'zbek xalq cholg'ularining boy merosi an'analarga va qadimiy tarixiga ega. Uning davrlar osha rivoji , xalq musiqasi va mumtoz musiqasi negizida rivoj topib kelganligi amaliyotdan ma'limdir. Musiqa san'ati insoniyatning ma'naviy boyligi, estetik dunyoqarashi va kelajak kamolotini belgilovchi mezonlardan biri sifatida ardoqlab kelinadi.Unda har bir xalqning milliy an'analari, urf – odatlari, marosim va qadriyatlarini munosib o'rin olgan. Musiqa ijrochiligi, xalq musiqa madaniyatining shakillanib, rivoj topuvchi jonli jarayoni ekanligi hammaga ma'lum. Uning namoyondalari bo'lmish sozanda, xonanda va bastakor xalq madaniyatining o'ziga xos mutasaddilari sifatida e'zozga loyiq ko'rilgan. Musiqa sohasining azaliy qadriyatlaridan zamonaviy mezonlariga bo'lgan jarayonlarni faqatgina ohanglarda muhrlangan bastakor asarlardagina anglash mumkin. Buning esa ko'lami keng, ularni tasavvur qilish ham mushkul. Chunki har bir xalqning o'z ma'naviyati , ma'rifati , estetikasi bo'lib, hayot degan jarayonda milliy hamda mahrotli omillar

bilan sug'orilab kelingan. Dunyodagi har bir xalqning borligidan darak beruvchi omil-bu tilidir. Uning buyukligini ifodalovchi me'zon- bu ma'naviyatidir. Demak ma'naviyatining asosiy tarmoqlaridan biri- musiqa ekanligi barchaga ayondir. Musiqa dunyosi juda keng va barcha sohalarga teng dahldor ekanligi bilan boshqa sohalardan farq qiladi. Musiqa dunyosi insoniyatning hayoti , yashash tarsi, faoliyati, mehnati, qadriyati, an'anasini inkor etuvchi vosita sifatida ahamiyatlidir. Shu bois musiqa o'zining badiiy va estetik imkoniyatlariga egaligi bilan harakterlanadi. Musiqa sohasida ta'lim olayotgan har bir sozanda, xonanda va ijodkorlar o'z musiqa an'alarini bilib olishlari va kelgusida avlodlariga xos an'anani munosib davom etirishlariga " o'zbek musiqasi tarixi" fanida olgan saboqlari albatta dasturi amal bo'lib hizmat qiladi. Xalq musiqasi bu hayot manbai, ijod manbai, ruh ozig'i millat ko'zgusidir.

Musiqa merosining yangilanishidagi tashabbuskorlik targ'ibotchilari bastakorlardir. Bastakorlarimiz hozirda mavjud maqom turkumlari zaminida noyib asarlar yaratmoqdalar. Shu bilan bir qatorda , ularning ijodida yangi uslubiy yo'nalish va ijodiy maktablar shakillandi. Shu asnoda bastakorlarning ijodiy mahsuli bo'lmish turli kuy, qo'shiq va ashullar, musiqiy xazinamizni yanada boyitib bormoqda. Bastakorlik ijodiyotida sozandalik va xonandalik faoliyati qadimdan alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Hozirgi kunda ham bastakorlarimiz ijrochilik hamda ijodkorlikning o'zaro uzviy bog'liqligini o'z faoliyatida ko'rsatib kelmoqdalar.²

Insoniyatning dunyo qarashi tafakkuri boyigani sari uning musiqasi ham o'zgarib bordi. Har bir zamonda insoniyat musiqani o'ziga moslashtirib keldi. Shuning uchun musiqani har kim o'zicha har xil tushunadi. Kimdur uchun musiqa bu oddiy tovushlar yig'indisi, kimdurlar uchun esa fizik xodisa namunasi, kimdur uchun hayotining ajralmas qismi bo'lib, hizmat qiladi. Uning hayotimizdagi o'rni beqiyos. Musiqani eshitmaydigan uni tinglamaydigan odam bo'lmaydi. Sababi hech bir qalb yo'qki, musiqa uning eshiklarini ochib kira olmagan bo'lsa. Inson suvga tashna bo'lgangani kabi, uning ruhi ham musiqaga tashna bo'ladi. Bu insonning o'ziga sezilishi yoki sezilmasligi ham mumkun. U jismoniy va aqliy mehnatdan keyin insonga ketgan ruhiy energiya ba'zasi to'ldirib, asab tizimini tinchlantirish xususiyatiga ega. Musiqa madaniyatining umumiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan

² A.Jabborov.S.Begmatov.M.Azamova " O'zbek musiqasi tarixi" Toshkent 2008 35-bet



cholg'ularni takomillashtirish, xalq ijrochilik san'ati rivoji uchun katta imkoniyatlar yaratdi.³

Qadimda odamlar yirtqich hamda yovvoyi hayvonlarni ovlashda va ularni qo'lga o'rgatishda ham musiqa sadolaridan foydalanishgan. Musiqani yana bir xususiyati borki u bevosita odamni raqsga tushishga undaydi. Agar musiqa quloqni qomatga keltirgudek bo'lsa u odamni vahimaga, qo'rquvga solib qo'yadi. Buyuk Sarkarda sohibqiron Amir Temur bobomiz ham yurishlarida karnaychi va nog'orachilarni va zarbli cholg'uchilarni o'zi bilan olib yurgan, yurish qilayotgan hududiga dastlab erta tongda musiqachilarni yuborgan, ular quloqni qomatga keltirib odamlarda vahimani uyg'otgan, bundan qal'a ichkarisidagilar gangib qolgan, ruhiy zarba olgan qo'shin tabiiyki jangga kirisha olmagan. Sohibqiron esa kam yo'qotishlar evaziga o'lkalarni qo'lga kiritgan.

Musiqa inson madaniyatida jamoaviy hayotda o'ziga xos o'ringa ega. U dam olish va ko'ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashqlari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun musiqa asarlari o'z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga bo'linadi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Ashulla, dastgoh, cholg'u kuy, maqom yo'llari, konsert, miniatyura, romans va boshqa estetik tasir o'tkazish vazifalari asosiy o'rin tutadi. Musiqaning shifobaxsh xususiyatlari insonni nafaqat tushkun holatdan chiqaradi, balki jismoniy og'riqlardan xalos etadi. O'zini- o'zi davolash har qanday dori-darmonlardan muhimroq, va har birimiz mushkul holatlarda aynan unga umid qilamiz. Inson hayoti ikki qismga bo'linadi: atrofdagi hayot va inson qalbidagi o'ziga xos olam. Har birimiz o'ylaymiz, tasavvur qilamiz va orzu qilamiz, va insoniyat bilan parallel ravishda rivojlanadigon musiqa bizning fikrlarimizni yaxlitlaydi. Xalqimizning bebaho boyligi musiqa merosimiz o'zining boy tarixiga ega bo'lib davr o'tgan sari uni o'rganishga extiyoj tobora ortib bormoqda. Bu borada o'tmish risolalarda ham tarixiy muammolar zikr etib kelingan. Jumladan, Abu Nasr Farobiyning "Katta musiqa kitobi", Zaynulobiddin Husayniyning "Qonuni ilm, amali musiqiy", Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy", Alisher Navoiyning "Najolis ul-nafois", Darvesh Ali Changining "Musiqiy risola" lari bunga yorqin

³ A.Odilov "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi" Toshkent 1995 47-bet



misoldir. Milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz qalbi va ongiga singdirishda musiqiy me'rosimizni o'rganish milliy qadriyatlarimizni mustahkamlash va rivojlanishning o'zni katta. Musiqa madaniyatining umumiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan cholg'ularni takomillashtirish, xalq ijrochilik san'ati rivoji uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, musiqa hohlaymizmi hohlamaymizmi hayotimizni ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Musiqa bilan hayotimiz yorqin va jozibalidir. Musiqasiz hayotimizni tasavvur eta olmaymiz, chunki musiqasiz hayot go'yo g'amgin va mayusdek bo'lib qoladi. Musiqa bu o'zgacha tuyg'uki uni faqat his eta olishiz mumkun. Qayerda bo'lmaylik musiqa tinglash ehtiyoji bizni chulg'ab oladi. Ko'cha- ko'yda, to'y-u tomoshalarda va konsertlarda musiqani tinglashimiz mumkun. Musiqa sohasida ta'lim olayotgan har bir sozanda, xonanda va ijodkorlar o'z musiqa an'alarini bilib olishlari va kelgusida yangi avlodga saboq berishlari kerak. Ana shunda yangi avlod san'atni rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishlari mumkun bo'lar edi. Musiqa insonni dunyoqarashini, saviyasini oshirishda ko'maklashadi. Hozirgi vaqtga kelib musiqaga bo'lgan ehtiyoj ortgani bois, turli tadbirlar, teatr va zallarda musiqa ijro etilmoqda. Bu xalqning kayfiyatiga ijobiy tasir etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev " Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari" Toshkent 2020 310-bet
2. Jabborov.S.Begmatov.M.Azamova " O'zbek musiqa tarixi" Toshkent 2008 35-bet
3. A.Odilov " O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi" Toshkent 1995 47-bet
4. Djalilova, D. (2024). FORMATION OF HERMENEUTIC COMPETENCE OF FUTURE MUSIC EDUCATION TEACHERS IN THE ANALYSIS OF MUSIC TEXTS. B INTERNATIONAL BULLETIN OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY (T. 4, Выпуск 1, cc. 34–37). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10548121>
5. Djalilova, D. O. (2023). CHOLG'U ANSAMBLI VA MUSIQIY ASAR USTIDA ISHLASH. SCHOLAR, 1(28), 277–287. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10026753>.



6. Abdumutal Qambarov, Sultonbek Mannopov, Mavluda Najmetdinova “O‘zbek san’ati tarixi” farg’ona nashriyoti 2021 yil..
7. Abdullayeva. S Sovremenniy Azerbaytjanskiy muzikalniy instrumenti. Baku 1984 –yil .

